


• YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI •

TANKLAR



„YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI“

TANKLAR



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO'K: 623.438.32:087.5(031)

KBK 39.425.1ya2

T 21

Tuzuvchi

Jamoa

Aziz bolajon!

Yaqindagina o'ynab yurgan o'yinchoq tanklarni ukangizga hadya qilib, uni qanchalar quvontirgansiz. Endi esa ona Vatan tinchligi yo'lida xizmat qilayotgan akalaringizga havas qilayotgandirsiz? Askarlarning kiyinishi, qaddi-qomati, ko'rsatgan jasurliklari haqidagi ko'rsatuvlarni maroq bilan tomosha qilarsiz? Albatta, yurt posbonlari safida bo'lishni har bir o'g'il-qiz orzu qiladi. Orzu-maqсадga yetish uchun puxta bilim olish, sabr-u matonatli bo'lish talab etiladi.

El-u yurt, ona Vatan tinchligini qo'riqlashda esa harbiy texnikani mahorat bilan boshqaradigan sizdek o'g'lonlar kerak.

Siz uchun tayyorlangan ushbu ensiklopediya harbiy texnikalarning eng kuchlisi – tanklar haqida hikoya qiladi.


Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/7-132

ISBN 978-9943-5933-3-6

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.



MUNDARIJA

TANKLAR TARIXI

Tanklarni og'irligi bo'yicha tasniflash	8
Tank guruhlari	10

BIRINCHI JAHON URUSHI TANKLARI (1916–1920)

Mark I (Buyuk Britaniya)	14
Rus „Renosi“	16
LK-II – Leichte Kampfwagen (Germaniya)	18
Kolossal Wagen (Germaniya)	20

URUSHLAR ORALIG'IDAGI DAVR TANKLARI (1921–1938)

T-24 (SSSR)	24
VK31 Leichttraktor (Germaniya)	26
Toifa 97 (Yaponiya)	28
LT vz. 35 (Chexoslovakiya)	30



IKKINCHI JAHON URUSHI TANKLARI (1939–1945)

T-34 (SSSR).....	34
SU-100 (SSSR)	36
Tiger Porsche (Germaniya)	38
Pantera (Germaniya)	40
Maus, Panzerkampfvagen VII (Germaniya)	42
A22 CHERCHILL (Buyuk Britaniya)	44
„Valentayn“ Mk. III (Buyuk Britaniya).....	46
Archer (Buyuk Britaniya)	48
M4 „SHERMAN“ (AQSH).....	50

URUSHDAN KEYINGI BIRINCHI AVLOD (1946–1961)

IS-4 (SSSR)	54
430-obyekt (SSSR)	56
LEOPARD 1 (Germaniya).....	58
Chariotir (Buyuk Britaniya)	60
Toifa 60 (Yaponiya)	62



IKKINCHI AVLOD (1962–1980)

T-72 „URAL“ (SSSR)	66
OF-40 (Italiya)	68
Merkava (Isroil)	70
AMX-30 (Fransiya)	72

UCHINCHI AVLOD (1980–2015)

T-90 „Vladimir“ (Rossiya)	76
M1 Abrams (AQSH)	78
K2 BLAK PANTHYER (Koreya)	80
1 Ariete (Italiya)	82
Leopard 2 (Germaniya)	84
Arjun (Hindiston)	86

TO‘RTINCHI AVLOD (2015– ...)


T-14 Armata (Rossiya)	90
T-15 (Rossiya)	92

TANKLAR TARIXI

Tank – bu to'p otish quroli bilan jihozlangan, g'ildiraklari zanjir tasma yordamida harakatlanadigan kuchli zirhli jangovar mashinadir. Ushbu jangovar mashinalarning vatani Angliya hisoblanadi.

„Tank“ so'zi inglizcha „tank“ – „bak“, „sisterna“ yoki „rezervuar“ so'zidan kelib chiqqan.


Ilk tanklar o'tgan asrning boshlarida Birinchi jahon urushi davrida paydo bo'lgan. Ikkinchi jahon urushining boshida tanklar dunyodagi eng kuchli armiyalarga tegishli quruqlikdagi qo'shinlarning asosiy zarba beruvchi kuchiga aylandi. O'sha davrning eng oldi tanklari Germaniya va Sovet armiyasi qurolli kuchlari tarkibida bo'lgan.



Bu qiziq!

Bugungi kunda tanklar quyidagi mamlakatlarda ishlab chiqariladi:

- Rossiya
- Germaniya
- AQSH
- Fransiya
- Isroil
- Buyuk Britaniya
- Xitoy
- Yaponiya
- Janubiy Koreya



TANKLARNI OG'IRLIGI BO'YICHA TASNIFLASH


Kichik tanklar – og'irligi 5 tonnagacha bo'lgan, bitta yoki bir nechta pulemyotlar bilan qurollangan (T-37, T-38), umumqo'shin va tank harbiy qismlari hamda birlashmalarining razvedka ishlarini amalga oshirishga mo'ljallangan. Shuningdek, aloqa va transport vositasi sifatida foydalaniladi. Kichik tanklarning aksariyati suvda harakatlanishga moslab ishlangan va suvli to'siqlarni kechib o'tishda qo'llangan.

Yengil tanklar – jangovar og'irligi 16 tonnagacha (keyinchalik 20 tonnagacha) bo'lgan, kichik kalibrli to'p va pulemyot bilan qurollangan tanklardir. Ushbu tanklarning BT, T-26, T-40, T-50, T-60, T-70, T-80, Mk VI, M24 Chaffee, PzKrfw I, PzKrfw II, LT-35, LT-38 kabi rusumlari barcha umumqo'shin jangovar harakatlarda piyoda yoki otliq harbiy qismlarni kuchaytirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan.






O'ra tanklar – jangovar og'irligi 30 tonnagacha (keyinchalik 40 tonnagacha) bo'lgan, katta kalibrli to'p va pulemyotlar bilan qurollangan tanklar (T-28, T-34, T-111, M4 Sherman, PzKpfw III, PzKpfw IV)dir. Dushmanning mustahkam mudofaa chizig'ini yorib o'tishga mo'ljallangan.



Og'ir tanklar – jangovar og'irligi 30 tonnadan ortiq (keyinchalik 40 tonnadan ortiq) bo'lgan, katta kalibrli zambarak va pulemyotlar, ayrim hollarda, turli kalibrli to'plar bilan qurollangan (barcha rusumlari KV va IS, PzKrfw V „Pantera“, PzKpfw VI „Tiger“, PzKpfw VI Ausf. B „Qirol yo'lbarisi“) tanklardir. Dushmanning mudofaasini yorib o'tish va istehkomlar qurilgan hududlariga hujum qilishda umumqo'shin birlashmalarini kuchaytirish maqsadida foydalanilgan.



O'ta og'ir tanklar – og'irligi 80 tonnadan ortiq (PzKrfw VIII „Sichqoncha“) bo'lgan tanklar.

TANK GURUHLARI

Uzoq masofaga harakatlanadigan tanklar piyoda o'qchi qo'shinlari bilan birgalikda dushman mudofaasining jang maydonidan uzoqda joylashgan hududlarigacha yorib kirishda qo'llanilgan. Dushman ichki mudofaa hududida jang olib borish va jangovar operatsiyalarni amalga oshirish nazariyasida ushbu tanklardan faol foydalanish ko'zda tutilgan.

Piyoda qo'shinlarini uzoqdan qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan tanklar dushmanning hujumga o'tgan piyoda qo'shiniga qarata 1–2 km uzoqlikdagi pulemyot va minomyot zarbalarini qaytarish uchun xizmat qilgan.

Piyoda qo'shinlarini bevosita qo'llab-quvvatlovchi tanklar piyoda qo'shin ixtiyoridagi, ham ular bilan birgalikda dushman mudofaasini yorib o'tishni maqsad qilgan.

Maxsus tanklar (alohida vazifalarni bajarishga mo'ljallangan tanklar):

– umumqo'shin tanklarini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan va ularga nisbatan kuchliroq qurol-yarog' bilan jihozlangan artilleriya tanklari (masalan, AT-1);





– dushmanning askar kuchi va o'q otish nuqtalariga o't ochish, shuningdek, tutun hosil qilish va kimyoviy qurol ishlatish uchun mo'ljallangan – o't purkagich yoki tutun yoyish qurilmalari bilan jihozlangan o't purkagich va kimyoviy tanklar;

– turli xil muhandislik to'siqlari va tabiiy g'ovlarni yengib o'tish uchun ishlatiladigan muhandislik tanklari;

– yuqori turuvchi shtablar bilan tank bo'linmalari va birlashmalari qo'mondonligi o'rtasida radioaloqani tashkil qilish uchun maxsus apparatura bilan jihozlangan radiotanklar;


– jang paytida umumqo'shin tanklarini o'q-dori va yonilg'i bilan ta'minlash, piyoda askarlarni harbiy harakatlar joyiga yetkazish va yaradorlarni evakuatsiya qilish uchun mo'ljallangan transportyor tanklar (zamonaviy jangovar mashinalar qatorida – piyodalar jangovar mashinasini to'laqonli tank-transportyor deb hisoblash mumkin).

BIRINCHI JAHON URUSHI TANKLARI (1916–1920)

Tankning hodisa sifatida yaratilgan yillari.

Dastavval, zanjirli tasma yordamida harakatlanadigan va har qanday o'q otishga qodir bo'lgan texnik vositani tank deb atashgan. Birinchi Jahon urushi 1918-yilda tugagan bo'lsa-da, tanklarning ishlab chiqarilishi 1919–1920-yillarda ham davom etgan.






MARK I

Mark I – Britaniyaning Birinchi jahon urushi davridagi og'ir tanki. U 1916-yilda ishlab chiqarilgan. Tarixda jang maydonida signalgan birinchi tank (1916-yil 15-sentyabr, Somma jangi). Britaniyadagi „romb shaklidagi“ tanklar oilasining asoschisi.

Mark I Birinchi Jahon urushining jang maydonlarida qazilgan keng xandaqlardan o'tish uchun, tank tuzilishidagi g'ildiraklarni harakatga keltiruvchi, eng uzun zanjir tasmani qo'llashni talab etadigan g'ayrioddiy romb shakliga ega edi. Ushbu qurilmaning balandligi tankning bosh qismida qurol joylashtirilishiga yo'l qo'ymagan. Shuning uchun, asosiy qurol tankning yon tomonlaridagi sponson (asosiy qismdan tashqariga chiqib turadigan qism) larga joylashtirilgan.






RUS „RENO“SI

Rus „Reno“si – birinchi seriyali ishlab chiqarila boshlangan rus tankidir. Tasniflanishi bo'yicha piyoda qo'shinlarni bevosita qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan yengil tanklar turiga kiradi. 1920–1921-yillarda Sormovo zavodi (Nijniy Novgorod)da ishlab chiqarilgan.

Tank fransuzlarning Reno FT-17 yengil tankiga juda o'xshash, biroq fransuz tankiga qaraganda ijobiy va salbiy tomonlari ham mavjud edi. U biroz og'irroq bo'lib, ayni paytda, tankning harakatchanligiga salbiy ta'sir qiladigan kuchsiz dvigatelli bo'lgan. Bu tankning avvalgilaridan farqi, qurollari – ham to'pi, ham pulemyoti bor edi.

1920-yilda Qizil Armiya tomonidan rasmiy ravishda qabul qilinganiga qaramay, Rus „Reno“lari hech qanday harbiy harakatlarda ishtirok etmagan. Ulardan 1930-yilgacha foydalanilgan.



Bu qiziq!!
Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida tanklarni dvigatel nomi bilan atashgan. Ushbu tankni quyidagi nomlar bilan atalsa ham xato bo'lmaydi: Rus „Reno“si, „Tank M“ va „Tank KS“ (Krasnoye Sormovo).




Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/7-132

LK-II – LEICHTE KAMPFWAGEN (Germaniya)

LK-II – Birinchi Jahon urushida qatnashgan Germaniya imperiyasining yengil tanki. Yaxshi tank hisoblangan bo'lsa-da, Birinchi Jahon urushi tugashi bilan uning ishlab chiqarilishi to'xtatildi. Lekin LK-II 1920-yildan 1921-yilgacha uzluksiz (Versal tinchlik shartnomasi bo'yicha Germaniya o'z tanklariga ega bo'lishi taqiqlangani sababli maxfiy ravishda, traktor niqobi ostida) ishlab chiqarilgan va Vengriya hamda Shvetsiyaga eksport qilingan.

1918-yilda LK-I tanki sinovdan o'tkazildi. Ushbu tankning zirhini takomillashtirish to'g'risida qaror qabul qilinib, LK-II yaratildi.


Uning harakatlanish qurilmasi tayyor bo'lgan avtomobil agregatlaridan yig'ilgan. Tankning orqasida ekipaj, oldida esa dvigatel joylashtirilgan. Ushbu kamchilik LK-III tankida bartaraf etildi. Tankning tuzilishi zanjir tasmaga „o'rnatilgan“ zirhli avtomobilga o'xshash edi.



Bu qiziq!

LK-II o'sha paytda Germaniya imperiyasida ishlab chiqarish uchun tayyorlanayotgan o'ta og'ir tanklarga nisbatan 10 baravar arzon bo'lgan.

МММ ЖЕВОН
591 1. 2006 68 VIII




KOLOSSAL WAGEN (Germaniya)

K-Wagen (Kolossal-Wagen, Kolossal yoki shunchaki K) – o'ta og'ir nemis tanki. U bahaybat o'lchami va ulkan vazni bilan ajralib turgan. Urush oxiriga kelib, birorta ham tank to'liq qurib bitkazilmagan, tankning qurilishi tugallanmagan birinchi va ikkinchi namunasining detallari urush tugashi bilan yo'q qilingan.

Kolossal-Wagen deb nom olgan loyiha bo'yicha 150 tonna og'irlikdagi tankni yaratish rejalashtirilgan. Tank ikkita yoki to'rtta 50–77 mm li to'p, to'rtta pulemyot va ikkita o't purkagich bilan qurollantirilishi nazarda tutilgan. Mashina har biri 200–300 ot kuchiga ega ikkita dvigatel bilan jihozlanib, 30 mm li zirh bilan himoyalangan. Ekipaj 18 kishidan iborat bo'lgan.

Umuman olganda, „K-Wagen“ sponsonlarda o'rnatilgan aralash to'p-pulemyot qurolga ega bo'lgan va o'q-parchalarga qarshi zirhlangan o'ta og'ir vaznli tankdir.







KO'RSAL WAG'IN (Gardariya)

URUHLAR ORALIG'IDAGI DAVR TANKLARI (1921-1938)

Osmonda dirijabl va samolyotlar,
yerdada esa aajib mashinalar hukmron
bo'lgan zamon.





T-24

T-24 – Sovet Ittifoqining o'rtacha og'irlikdagi tanki. U 1929–1930-yillarda T-12 sinov tankining takomillashtirilgan ko'rinishi sifatida yaratilgan va armiyaning qurollanish tizimida „manyovr“li tankning vazifasini bajarish uchun mo'ljallangan. 1930-yillarda tashkil etilgan seriyali ishlab chiqarish jarayonida 28 ta shassi, 25 ta zirhli korpus va 26 ta bosh qismlari ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, iqtisodiy qiyinchiliklar va „manyovr“li tankni uzil-kesil tanlashda mavhumlik mavjudligi tufayli T-24 ni katta hajmda to'laqonli ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilmagan. Chiqarilgan mashinalar 1930-yillarning oxirigacha xizmatda bo'lib, harbiy harakatlarda qatnashmagan.

T-24 tanki namunaviy tuzilishga ega bo'lgan. Qurol-yarog'i 3 pog'onada joylashgan bo'lib, pulemyotdan o'qqa tutish samaradorligini oshirish uchun yuqori kichik minora qismi aylanadigan bo'lgan.







VK31 LEICHTTRAKTOR (Germaniya)

Leichttraktor (nemis tilidan – „yengil traktor“) – 1930-yillardagi nemis yengil tanki. Kleintraktor va VK31 nomlari bilan ham tanilgan.

Qurollanishi VK31 37 mm li yarim avtomatik zambarak KwK 36 va bitta 7,92 mm li „Dreyse“ pulemyotidan iborat. Bundan tashqari, 3 km gacha masofadan radiotelefon va 7 km gacha masofadan radiotelegraf aloqasidan foydalanish imkonini beradigan radiostansiyalar bilan jihozlangan. Shuningdek, gaz hujumlari sharoitida harakatlanish uchun kimyoviy hujumga qarshi vositalar bilan himoyalangan.

Dvigatelni tankning old qismida o'rnatilishi ekipaj a'zolarini old tomondan o'qqa tutish oqibatida shikast yetishidan saqlagan, ammo yetarli qalinlikda bo'lmagan zirh, zambarak va yirik kalibri o'qlarning talafotidan mashinani asrab qololmagan.



Bu qiziq!

Versal tinchlik shartnomasi shartlariga ko'ra, Germaniya o'z tank parkiga ega bo'lishi taqiqlangan, aynan shu sababdan, chalg'itish maqsadida ushbu mashinalar traktor niqobida ishlab chiqarilgan.



TOIFA 97 (Yaponiya)

Toifa 97, „Chi-Xa“ – yapon o'rta tanki. Yaponiya tasnifiga ko'ra o'rta tank hisoblangan, og'irligi bo'yicha yengil tanklar turkumiga mansub bo'lgan.

„Mitsubisi“ kompaniyasi tomonidan 1935–1937-yillarda ishlab chiqarilgan, 1938-yildan 1943-yilgacha uzluksiz ishlab chiqarilgan. Ikkinchi Jahon urushidagi („Xa-Go“ dan keyin) soni jihatidan ikkinchi ommaviy yapon tanki bo'lgan „Chi-Xa“ yapon zirhli-tank kuchlarining asosini tashkil etgan va yapon qo'shinlari jang qilgan barcha jangovar maydonlarda faol ishtirok etgan.

„Chi-Xa“, orqada joylashgan dvigatel va oldinga o'rnatilgan transmissiya (harakatni uzatuvchi qurilma) qismlari, boshqaruv va jangovar bo'limlari birlashtirilgan tuzilishga ega bo'lgan. Tankning ekipaji to'rt kishidan iborat edi: mexanik-haydovchi, o'qchi, o'qlovchi va mo'ljalga oluvchi vazifalarini ham bajaradigan tank komandiri.





© 2000

LT VZ. 35 (Chexoslovakiya)

LT vz. 35 – Chexoslovakiyaning „Shkoda“ kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan yengil tank. 1935/36 yillarda LT vz. 35 tanki armiya safiga qo'shildi va 1937-yilga kelib Chexoslovakiyaning asosiy tankiga aylandi. Vermaxt qo'shinlari tomonidan faol foydalanilgan. O'zining taktik-texnik ko'rsatkichlariga ko'ra LT vz. 35 ni o'sha paytda qo'llanilgan boshqa Yevropa tanklari bilan taqqoslash mumkin bo'lgan. 1935–1939-yillarda 424 dona LT vz. 35 ishlab chiqarilgan. Chexoslovakiya Germaniya tomonidan bosib olinganidan so'ng, ushbu tanklar Vermaxt tarkibiga kiritilgan. Urushdan oldin LT vz. 35 Ruminiyaga eksport qilingan. Mazkur tanklar birinchi nemis yengil diviziyasining negizini tashkil etib, ushbu diviziya qayta tuzilganidan so'ng Polsha, Fransiya va SSSRga hujum qilinganda oltinchi tank diviziyasining asosi bo'lgan.





Bu qiziq!
O'z vaqtida va toifasida LT vz. 35 uncha yuqori talafot kuchiga ega bo'lmagan 37 mm li to'p bilan jihozlangan.

IKKINCHI JAHON URUSHI TANKLARI (1939–1945)

Ikkinchi Jahon urushi davrida zirhli texnikalar ishlab chiqarishga talab ortdi. 1943-yilda benuqson hisoblangan tanklar, 1944-yilga kelib takomillashtirildi.





T-34 (SSSR)

T-34 – sovet o'rta tanki, 1940-yildan ommaviy ishlab chiqarilgan. SSSR qurolli kuchlarining asosiy tanki. 1944-yilning birinchi yarmigacha uning T-34-85 takomillashtirilgan ko'rinishi qo'shinlar tarkibiga kiritilgunga qadar, armiyaning asosiy tanki hisoblangan.


Ikkinchi jahon urushi davridagi eng ommaviy tank – T-34 namunaviy tuzilishga ega bo'lgan.

Tank ekipaji to'rt kishidan: boshqarish bo'linmasidagi mexanik-haydovchi va o'qchi-radist hamda ikki o'rinli bosh qismida joylashgan o'qlovchi va mo'ljalga oluvchi vazifasini bajaradigan tank komandiridan iborat bo'lgan.



Bu qiziq!

T-34 mashhur sovet tanki va Ikkinchi Jahon urushining eng tanilgan texnikalaridan biridir. Bugungi kunga qadar ushbu tanklarning ko'p sonli turlari yodgorliklar va muzey eksponatlari ko'rinishida saqlanib qolgan.



SU-100 (SSSR)

SU-100 – bu Ikkinchi Jahon urushi davridagi qiruvchi tank turkumiga tegishli o'rta og'irlikdagi o'ziyurar artilleriya qurilmasidir.

SU-100 ning birinchi jangovar qo'llanishi 1945-yilning yanvar oyiga to'g'ri keladi.

SU-100 ning tuzilishi deyarli tank tuzilishini takrorlagan: artilleriya qurilmasi old qismidagi birlashgan boshqaruv va jangovar bo'linmalar hamda orqa qismda joylashgan motor-harakatni uzatish bo'linmasiga ega bo'lgan. SU-100 ekipaji to'rt kishidan iborat bo'lgan: mexanik-haydovchi, komandir, mo'ljalga oluvchi va o'qlovchi.



Xizmat qilish muddati uzoqligi tufayli, SU-100 nisbatan katta miqdorda ilgari jangovar holatda turgan mamlakatlarda, birinchi navbatda sobiq SSSRda, shuningdek, Chexiya va Slovakiyada saqlanib qolgan. O'nlab o'ziyurar artilleriya qurilmalari yakka yodgorlik yoki yodgorlik majmualarining bir qismi sifatida o'rnatilib, muzeylarda namoyish etiladi. Arab-Isroil urushlari paytida Isroil qo'shinlari tomonidan qo'lga olingan bir nechta o'ziyurar to'plar boshqa davlatlarga ham yetib borgan.




TIGER Panzerkampfwagen VI Ausf H1 (Germaniya)

Panzerkampfwagen VI Ausf H1, „Tigr“ – Ikkinchi Jahon urushi davridagi nemis og'ir tanki. Uning ilk sinov namunasi Ervin Aders rahbarligida „Xenshel“ firmasi tomonidan 1942-yilda ishlab chiqilgan – VK4501 (H) tanki xizmat qilgan.


„Xenshel“ firmasining loyihaviy namunasi bilan birga Ferdinand Porshening VK4501 (P) namunasi ham taqdim etilgan, biroq harbiy komissiyaning qaroriga asosan, „Xenshel“ firmasining loyihasi tanlangan.

„Tigr“ tanklari 1942-yil 29-avgustda Leningrad ostonasida ilk bor jangga kirgan, 1943-yil fevral-mart oylarida bo'lib o'tgan Xarkovni qo'lga olish janglaridan boshlab ommaviy tarzda foydalanilib, nemis qo'shinlari tomonidan Ikkinchi jahon urushining tugashiga qadar faol qo'llanilgan.

Ishlab chiqarilgan tanklarning umumiy soni, 10 dona Pz.Kpfw. VI Tiger (P) tanklarni qo'shgan holda, 1 357 donani tashkil qiladi. Bir dona „Tigr“ tankini ishlab chiqarish xarajatlari 800 000 reyxsmarkaga teng bo'lgan va bu o'sha vaqtdagi har qanday tankning narxidan ikki barobar qimmat bo'lgan.



Tankni boshqarish avtomobilnikiga o'xshash rul yordamida amalga oshirilgan. „Tigr“ tankini boshqarishning asosiy vositalari – bu rul chambaragi va tepkilardir (gaz, ulanish, tormozlar). O'rindiq oldida o'ng tomonda harakatni o'tkazish va to'xtab turish tormozi dastaklari o'rnatilgan (chapda – to'xtab turish yordamchi tormoz dastagi). O'rindiq ortida ikki tomondan avariya holatlarida foydalaniladigan boshqarish dastaklari joylashgan. Shu bilan birga, boshqarish jarayoni yetarli darajada oddiy bo'lgan va maxsus ko'nikmalarni talab etmagan.



PANTERA (Germaniya)

„Pantera“ (PzKpfw V „Panther“) – nemis o'rta tanki. Ushbu jangovar mashina T-34 tankining jang maydonlarida paydo bo'lishi va undan faol foydalanilishiga javob sifatida 1941–1942-yillarda „MAN“ firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

„Pantera“ „Tigr“ga qaraganda kichikroq kalibrli qurol bilan qurollangan va nemis tasnifiga ko'ra, u o'rta tank deb hisoblangan. Ammo 75 mm li „Pantera“ning to'pi zirhni teshib o'ta oluvchi „Tigr“ tankining asosiy quroli bo'lgan 88 mm li KwK 36 L/56 to'pidan ustun kelgan.

1944-yil 27-fevraldan boshlab tankni belgilash uchun faqat „Pantera“ nomi qo'llanilgan.

Panteraning jangovar deb-yuti „Kursk yoyi“dagi jangda bo'lib o'tgan.



Ba'zi mutaxassislarning fikriga ko'ra, „Pantera“ Ikkinchi Jahon urushidagi eng yaxshi o'rta tank bo'lgan. Tankning bir qator kamchiliklari: ishlab chiqarilishi va ishlatilishi murakkab tuzilgan. „Pantera“ negizida „Yagdpantera“ tankiga qarshi o'ziyurar artilleriya qurilmalari va Germaniya qurolli kuchlarining muhandislik va artilleriya bo'linmalari uchun bir qator maxsus transport vositalari ishlab chiqarilgan.




MAUS, PANZERKAMPFVAGEN VII (Germaniya)

Maus, Panzerkampfvagen VII – 1942-yildan 1945-yilgacha bo‘lgan davrda Ferdinand Porche boshchiligida loyihalashtirilgan juda og‘ir tank. Tarixda, metaldan yasalgan eng og‘ir tank hisoblanadi (jangovar og‘irligi – 188,9 tonna). Bu turdagi faqatgina ikki dona mashina qurilgan. U jangovar harakatlarda ishtirok etmagan. Hozirgi vaqtda Kubinkadagi Zirh-tank muzeyida ikkala tankning qismlaridan yig‘ilgan bitta „Maus“ tanki saqlanib qolgan.




Mashina ekipaji olti kishidan iborat bo'lgan. Haydovchi va radistning o'rindirlari 1590 litr sig'imga ega ikkita asosiy yonilg'i baklari orasidagi boshqaruv bo'linmasida joylashgan. Ularning orqasida, motor bo'linmasida, yon tomonlarga suv va moy radiatorlari, markazda esa dvigatel o'rnatilgan. Har bir harakatlanish g'ildiragi alohida elektr dvigateli bilan jihozlangan.




A22 „CHERCHILL“ (Buyuk Britaniya)

„Cherchill“ (Piyodalar tanki Mk.IV „Cherchill“), A22 – massasi og‘ir bo‘lgan Buyuk Britaniya piyodalar tanki. 1939–1940-yillarda loyihalashtirilib, 1941–1945-yillarda ommaviy ishlab chiqarilgan va Britaniyaning Ikkinchi jahon urushidagi eng ko‘p sonli tanklaridan biriga aylangan. Barcha „piyoda“ tanklar singari, „Cherchill“ tanklari ham past tezligi bilan ajralib turgan, ammo kuchli zirhlaniishi (101 mm old zirh, keyinchalik 152 mm ga yetkazilgan) urush oxirigacha uning jangovar qo‘llanilish samaradorligini ta‘minlagan. 50-yillarning oxiriga kelib, „Cherchill“ amaldagi qurolanish tizimidan olib tashlandi, ammo ushbu tanklarning bir qismi o‘tochar ko‘rinishda Koreya urushida qatnashdi.




„Cherchill“ klassik tuzilishdagi tankdir. Motor-harakat uzatish bo‘linmasi tankning orqa qismida, jangovar bo‘linma o‘rtada, boshqaruv bo‘linmasi esa old qismida joylashgan. Tank ekipaji besh kishi: bosh qismida joylashgan tank komandiri, mo‘ljalga oluvchi, o‘qlovchi hamda boshqaruv bo‘linmasida joylashgan mexanik-haydovchi va pulemyotchidan iborat bo‘lgan.



„Valentayn“ MK. III (Buyuk Britaniya)

„Valentayn“ Mk. III – yengil vaznli piyoda qo'shin tanki. 1938-yilda „Vickers Armstrongs“ firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Ommaviy ishlab chiqarish jarayonida, 1940-yil iyunidan 1944-yil aprelegacha (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra – 1945-yil boshiga qadar) Buyuk Britaniya va Kanada-da 8275 dona „Valentayn“lar ishlab chiqarilgan, bu esa uni Ikkinchi Jahon urushidagi eng ko'p sonli Britaniya tankiga aylantirgan. U Buyuk Britaniya va Britaniya Hamdo'stligining bir qator mamlakatlari – qurolli qo'shinlari tarkibidagi „Lend-liz“ dasturi doirasida katta miqdorda SSSR-ga yetkazib berilgan. U 1945-yilgacha „xizmat“da bo'lgan va harbiy mutaxassislar tomonidan o'z sinfidagi eng muvaffaqiyatli tanklardan biri sifatida tan olingan. Urushdan keyin 1955-yilgacha Yangi Zelandiyada „xizmat“ qilgan.



„Valentayn“ klassik tuzilishdagi tank edi. Uning ekipaji uch kishidan iborat bo'lgan: korpus old qismidagi boshqaruv bo'linmasida joylashgan haydovchi va ikki o'rindiqli bosh qismida joylashgan komandir bilan mo'ljalga oluvchi. Odatda, komandir ham o'qlovchi vazifasini bajargan, biroq ayrim hollarda mo'ljalga oluvchining o'rnini egalagan, bu holatda mo'ljalga oluvchi o'qlovchi vazifasiga o'tgan. Bosh qism uch o'rindiqqa ega bo'lgan Mk. III va Mk. V tank turlarida ekipaj tarkibiga alohida o'qlovchi kiritilgan.



ARCHER (Buyuk Britaniya)

Archer (SP 17 pdr) – Ikkinchi Jahon urushi davridagi Angliyaning tanklarga qarshi o'ziyurar-artilleriya qurilmasi. Ushbu jangovar mashina „Valentayn Mk. IX“ tankining harakatlanish tizimiga ochiq 17 funtli QF-17 Pounder tankka qarshi to'p otuvchi qurilmadir. Asosiy konstruktiv xususiyati – orqaga qaratilgan to'p bo'lib, pistirma hujumidan keyin mashinani aylantirmasdan pozitsiyani tezda o'zgartirishga imkon bergan.

„Orqaga qaratilgan“ to'p otuvchi qurilma kamchilik deb hisoblanmagan, chunki „Archer“, odatda, zarurat tug'ilganda zudlik bilan tashlab ketish imkoniyatini bergan, pana joydan o'q otish vazifasini bajargan. 17 funtli to'p aksariyat nemis tanklari va zirhli mashinalariga qarshi samarali kurash olib borishga imkoniyat bergan. To'pning otish tezligi minutiga 10 tani tashkil etgan. O'ziyurarining to'liq o'q-dori zaxirasi 40 snaryadni tashkil etgan. O'q otishni boshqarish uchun teleskop va kuzatuv, nishonga olish moslamalari ishlatilgan.





M4 „SHERMAN“ (AQSH)

M4 „Sherman“ – Amerikaning asosiy o'rta tankidir. Amerika armiyasi tomonidan barcha jang harakatlari olib borilgan maydonlarda keng qo'llanilgan va ittifoqchilar (birinchi navbatda Buyuk Britaniya va SSSR)ga ko'p sonda yetkazib berilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin „Sherman“ dunyoning ko'plab mamlakatlari armiyalarining qurollanish tarkibida bo'lgan va, shuningdek, urushdan keyingi ko'plab mojaro va to'qnashuvlarda ishtirok etgan. AQSH armiyasida M4 Koreya urushi tugaguniga qadar xizmat qilgan. „Sherman“ o'z nomini Britaniya armiyasida Amerika fuqarolik urushi davridagi general Uilyam Sherman sharafiga olgan.

M4 klassik nemis tanki tuzilishida bo'lib, uning orqa qismida motor, old qismida harakat uzatish bo'linmasi joylashgan. Ularning o'rta-sida jangovar bo'linma mavjud, dumaloq aylanish minorasi tankning markaziga o'rnatilgan.



Bu qiziq!
1942-yil fevraldan 1945-yil iyul-
gacha bo'lgan davrda jami
49 234 ta tank ishlab chiqarilgan.
Bu – Amerikada ishlab chiqaril-
gan eng ommaviy tankdir.



URUSHDAN KEYINGI BIRINCHI AVLOD (1946–1961)

Ikkinchi Jahon urushi jangovar texnika g'oyalari va asosiy qarashlari o'zining yuksak cho'qqisiga yetkazildi.





IS-4 (SSSR)

IS-4 (Obyekt 701) urushdan keyingi avlod – sovet og'ir tanklari. U Chelyabinsk traktor zavodida yaratilib, 1946-yil 29-aprelda harbiy qurollanish tarkibiga qabul qilingan. 1947-yilning mart oyidan 1949-yil 1-yanvargacha uzluksiz ishlab chiqarilgan.

IS-4 IS-2 og'ir tanki negizida ishlab chiqilib, payvandlangan yuqori qattqlikdagi korpus, o'zgaruvchan devor qalinligidagi quyma bosh qismiga ega bo'lgan.

Qurollanishi zambarak bilan qo'shaloq bo'lgan bitta katta kalibrli pulemyot, o'qlovchi lyukida o'rnatilgan va maxsus mo'ljallagichga ega bo'lgan zenit pulemyotidan iborat. Zambarakda nishonga olish elektr-mexanik tarzda amalga oshirilgan. 10RK-26 (10RT) radiostansiyasi bilan jihozlangan.





Bu qiziq!

IS-4, aniqrog'i, uning sinov namunalaridan biri bo'lgan 1-sonli Obyekt 701 sovet tanklari uchun noyob xususiyat – tankning bosh qismida joylashtirilgan, tepadan otish uchun mo'ljallangan minomyotga ega bo'lgan. Bunday qurol tanklarda juda kam uchraydi.

IS-4 ommaviy ishlab chiqarilgan eng og'ir sovet tanki hisoblanadi.

OBYEKT 430 (SSSR)

Obyekt 430 – sinovdagi sovet o'rta tanki. Korpus va bosh qismining yaxshi zirhlanishi bilan ajralib tursa-da, ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'z turdoshlaridan ortda qolgan.

Urushdan keyingi davrda, asosan, T-54 tanklari va uning turlari armiyaga yetkazib berilgan. 1950-yilning boshlarida ushbu tanklarning qurollanishi, tuzilishi va jihozlanishi, tez harakatlanishi va zirhlanishi o'sha paytdagi talablarga javob bermasligi aniq bo'lib qoldi. Shu sababli ular, ehtimoliy dushmanning og'ir va o'rta tanklariga qarshi samarali kurasha olmasdi. Shuning uchun armiya o'zining jangovar xususiyatlari bo'yicha mahalliy va xorijiy tanklardan ustun turadigan, sifat jihatidan yangi tankka muhtoj edi.

Shunday qilib, „Obyekt 430“ belgisini olgan istiqbolli o'rta tankni ishlab chiqish bo'yicha ishlar boshlangan.

Ushbu tankning ommaviy tarzda ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilmagan.

Bu qiziq!

Ayni paytda, tankning saqlanib qolgan nusxalaridan biri Zirh-tank Kubinka shahri muzeyidan joy olgan.



„Obyekt 430“ning tuzilishida an'anaviy usuldan foydalanilgan. Motor-harakatni uzatish bo'linmasi orqa qismda o'rnatilgan. Mexanik-haydovchi boshqaruv bo'linmasining markaziy qismida joylashtirilgan. Motor maxsus tarzda loyihalashtirilgani sababli, urushdan keyingi tanklar orasida ushbu bo'linma hajmining qisqartirilishiga erishilgan. Natijada, tankning zirhlangan hajmi T-54 dagi hajmning deyarli yarmiga teng kelgan.



LEOPARD 1 (Germaniya)

Leopard 1 – 1980-yilgacha Germaniyaning asosiy jangovar tanki bo'lgan. Tank hanuzgacha turli mamlakatlar armiyasining qurollanish vositalari tarkibida mavjud va doimiy ravishda takomillashib bormoqda. 2010-yilgacha Germaniya armiyasi (Bundesver)ning tarkibida bo'lib, uning o'rnini Leopard 2 egalladi.

Tanklarning birinchi avlodi 1965-yil sentabr oyida Myunxendagi „Krauss-Maffei Wegmann“ nemis kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Hammasi bo'lib 5200–6000 dona har xil turlanishdagi Leopard 1 tanklari ishlab chiqarilgan.

„Leopard“ motor-harakatni uzatish bo'linmasi orqa qismda, boshqarish bo'linmasi old qismda, jangovar bo'linmasi o'rta qismda joylashtirilgan klassik tuzilishga ega. Tank ekipaji to'rt kishidan iborat: mexanik-haydovchi, komandir, mo'ljalga oluvchi va o'qlovchi.

Tankning zirhlanishi boshqa materiallardan foydalanmagan holda yoyilgan va metall zirhlardan tayyorlangan.





Bu qiziq!
Bugungi kunda ushbu tank quyida-
gi davlatlar armiyalarining qurollari
tarkibiga kiradi: Turkiya, Braziliya,
Italiya, Chili, Gollandiya, Kanada,
Norvegiya, Polsha, Belgiya.

CHARIOTEER (Buyuk Britaniya)

Charioteer Mk. 7, FV 4101 (sharioteer – arava poygachisi) – 1950-yillardagi britan tank qiruvchisi, Ikkinchi Jahon urushi davridagi „Kromvel“ tankining takomillashtirilgan ko‘rinishidir. Oldingi ko‘rinishidan ancha yuqoriroqda 84 mm li zambarak joylashgan bosh qismi bilan ajralib turgan. 1952-yilda 200 ta „Kromvel“ tanklari „Charioteer“ standarti bo‘yicha qayta jihozlangan. Britaniya armiyasida ular 1956-yilgacha „xizmat“ qilgan, shundan so‘ng boshqa mamlakatlarga sotilgan.


Charioteer mashhur „Kromvel“ tankining shassisi va kuchli tankka qarshi zambarak bilan jihozlangan.

Tank juda muvaffaqiyatli yaratilganiga qaramasdan, kam son-da ishlab chiqarilgan.



Tank quyidagi mamlakatlarning armiyalarida „xizmat“da bo‘lgan:

- Buyuk Britaniya;
- Avstriya – 56 ta tank;
- Iordaniya – 50 ta tank;
- Finlandiya – 35 ta tank;
- Isroil – 10 ta tank.




TOIFA 60 (Yaponiya)

O'ziyurar, orqaga burilmaydigan to'p otuvchi TIP 60 1950-yillardagi yapon o'ziyurar artilleriya qurilmasi, tanklarga qarshi o'ziyurar artilleriya qurilmalari turkumiga mansub bo'lgan. 1954–1960-yillarda Yaponiya o'z-o'zini mudofaa qilish kuchlari tiklangandan ko'p o'tmay ishlab chiqilgan va 1963-yilda qurollar tarkibiga kiritilgan.

TIP 60 ning uzluksiz ishlab chiqarilishi „Komatsu“ firmasi tomonidan 1960–1979-yillarda amalga oshirilgan va jami 223 ta shu rusumdagi o'ziyurar artilleriya qurilmalari ishlab chiqarilgan. Tanklarning zirhli himoyasi yanada takomillashtirilgandan so'ng, ularning imkoniyatlari kamaydi. Ayni paytda qo'shinlar tarkibidagi TIP 60 soni asta-sekin kamaytirilmoqda. Shunga qaramay, bugungi kunda ularning 90 tasi „xizmat“da.

Jangovar bo'linma mashinaning orqa qismida joylashgan va korpusning old qismidan biroz yuqoriga ko'tarilgan, quvvat



bo'linmasi mashinaning old qismidan o'rin olgan. Mexanik-haydovchining lyuki jangovar bo'linmaning old chap qismida joylashgan.

O'ziyurar artilleriya qurilmasining asosiy quroli – bu aylanadigan platformada ochiq o'rnatilgan, kuchaytirilgan, orqaga burilmaydigan ikkita M40 rusumli Amerika to'plaridir. Bir vaqtning o'zida mo'ljalga oluvchi vazifasini bajaradigan mashinaning komandiri optik mo'ljalga olish moslamasi yordamida to'plarni nishonga yo'naltiradi.

Kundalik o'q-dorilar soni oltitani tashkil qiladi.


Qo'shimcha qurollanish sifatida o'ziyurar artilleriya qurilmasiga 12,7 mm li M8S pulemyoti o'rnatilgan.



IKKINCHI AVLOD

(1962–1980)

Og'ir va o'rta tanklar yagona yangi tur – asosiy jangovar tankka qadar rivojlandi. Barcha davlatlar, mamlakatga bitta tank kerak, degan fikrga kelishdi. Lekin, yaxshi tank bo'lishi zarur. Faqat yondashuvlar turlicha edi.





T-72 „URAL“ (SSSR)

T-72 „Ural“ – sovet o'rta asosiy tankidir.

U ikkinchi avlodning eng ommaviy tanki hisoblanadi. 1973-yilda harbiy qurollanish tarkibiga qabul qilingan. T-72 Nijniy Tagildagi Ural vagon zavodi tomonidan loyihalashtirilgan va ishlab chiqarilgan. Mashinaning bosh konstruktori – V.N.Venediktov. „Ural“ MDH mamlakatlari armiyalari tarkibiga kiritilgan, Finlandiya, Hindiston, Eron, Iroq, Suriyaga eksport qilingan. T-72 ning o'zgartirilgan ko'rinishlari uni eksport qiladigan Yugoslaviyada (M-84), Polshada (PT-91), Chexoslovakiyada va Hindistonda litsenziya asosida ishlab chiqarilgan.

T-72 motor-harakatni uzatish bo'linmasi orqa qismida, jangovar bo'linmasi o'rta qismida va boshqaruv bo'linmasi mashinaning old qismida joylashtirilgan klassik tuzilishga egadir. Tankning ekipaji uch kishidan iborat: mexanik-haydovchi, mo'ljalga oluvchi va o'qlash avtomatida o'q-dorilar sarf qilingandan so'ng o'qlovchi vazifalarini ham baja-



ruvchi komandir. O'q otishdan so'ng jangovar bo'linmasidagi gazlardan havoni tozalash va gilzalarning bosh qismdan otilib chiqishi avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

T-72 qurolli kuchlar tarkibiga qabul qilinganiga 40 yildan oshdi. Ushbu tankdan o'nlab mamlakatlar foydalanadilar. Tankning chuqur modernizatsiya qilingan T-72B, T-72B3, ayniqsa, T-72B3M ko'rinishlari zamonaviy urush talablariga javob beradi.

Boshqa tanklar singari, T-72 ham dushman aviatsiyasiga qarshi himoyasizdir.




OF-40 (Italiya)

OF-40 – Italiyaning asosiy jangovar tanki, „Leopard-1“ esa nemis tankining bir turidir. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga eksport qilish uchun 1970-yillarning oxirida ishlab chiqilgan. 1981–1985-yillarda 36 dona ishlab chiqarilgan.

OF-40 tuzilishida „Leopard“ning qismlari va agregatlari keng qo'llanilgan. Korpus va bosh qism payvandlanib yasalgan. Korpusning yaxshiroq himoyasini ta'minlash uchun old zirh plitalari katta burchakli qismga o'rnatilgan.

Tank to'siqlardan o'ta olish hamda tez harakat qilish xususiyatiga ega.

Tank aloqa vositalari, avtomatlashtirilgan yong'inga qarshi tizim va filtr-shamollatish



moslamasi bilan jihozlangan. Tankni yaratishda uning issiq iqlim sharoitida harakat qilishini inobatga olgan holda jihozlanishiga alohida e'tibor berilgan.

1981–1982-yillarda Birlashgan Arab Amirliklari 18 ta OF-40 Mk.1, 1984–1985-yillarda yana 18 ta OF-40 Mk.2 tanklarini, shuningdek, tank negizida chiqarilgan 3 ta BREM OF-40 ARV sotib olgan.



MERKAVA (Isroil)

„Merkava“ (jangovar arava) – Isroilda hozirgacha ishlab chiqarilayotgan asosiy jangovar tank. Birinchi „Merkava Mk.1“ 1979-yilda ishlab chiqarilgan. Tankning so‘nggi takomillashtirilgan ko‘rinishi – „Merkava Mk.4“dir.

„Merkava“ tankini loyihalashtirish ishlari 1970-yilda, Buyuk Britaniya Isroilga „Chiffen Mk 1“ tanklarini sotishni to‘xtatganidan keyin boshlandi.


Tankda motor-harakatni uzatish bo‘linmasi korpusning old qismiga joylashtirilgan.

Orqa qismda esa desant yoki yaradorlarni yoxud qo‘shimcha o‘q-dorilarni tashish imkoniyatini beradigan bo‘lma mavjudligi tankning o‘ziga xos xususiyatini belgilab beradi.

Ushbu xususiyat „Merkava“ni ham tank, ham zirhli transport vositasi vazifalarini bajarishga qodir universal jangovar mashinaga aylantiradi. Bo‘lmaning orqa qismida zirhli eshik bor, bu og‘ir vaziyatlarda ekipajga tankni tark etish imkonini beradi.



Jang paytida „Merkava“ tanklarining yo'qotishlari har 100 tadan atigi 8 tani tashkil etadi. Ularning uchtasi Birinchi Jazoir urushi paytida, qolganlari G'azo sektoridagi to'qnashuvlar paytida yo'q qilingan.



Bu qiziq!

2006-yilda Military Channel telekanali XX asrning eng yaxshi o'nta tankini e'lon qilgan. Ular qatoriga Isroilning „Merkava“ tanki ham kiritilgan. Shuningdek, T-34, M-1 Abrams, „Tigr“, WW-1, Centurion, Mk-IV, Challenger, T-54/55 va M-4 Sherman tanklari TOP-10 talikka loyiq topilgan.

AMX-30 (Fransiya)

AMX-30 – Fransiya qurolli kuchlarining asosiy jangovar tankidir (1966-yildan beri). Ushbu tank dunyodagi yetakchi mamlakatlar tanklaridan himoyalaniish darajasi nisbatan past bo'lsa-da, yuqori tezlik va yuksak manyovrlik imkoniyatlari bilan tanilgan.

AMX-30 tanki klassik joylashuv chizmasiga muvofiq tayyorlangan. Boshqaruv bo'linmasi korpus old qismining chap tomoni, jangovar bo'linma korpusning o'rtasini, motor-harakatni uzatish bo'linmasi korpusning orqa qismini egallaydi.

AMX-30 tankining korpusi payvandlangan konstruksiyadan iborat.

Fransiya armiyasidan tashqari, AMX-30 tankining o'zgartirilgan yoki takomillashirilgan turlari Venesuela, Gretsiya, Ispaniya, Qatar, Quvayt, Nigeriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Xorvatiya va Kiprning quruqlikdagi kuchlari tarkibida mavjud.





UCHINCHI AVLOD (1980–2015)

Jangovar texnikalar yanada takomillashib bordi. Odamlar, tank – jangovar mashinalar turkumi sifatida yo'q bo'lib ketishi haqida jiddiy gapirishgandi. Biroq bu xato fikr edi. Ushbu davrdagi tanklarning asosiy xususiyati – barcha texnik ko'rsatkichlarning yanada takomillashganida. Tankda elektronikadan keng foydalanish boshlandi. Boshqariladigan qurol-aslahalar va faol himoya usuli kirib keldi.





T-90 „VLADIMIR“ (Rossiya)

T-90 „Vladimir“ – o'rta va asosiy rus jangovar tankidir.

Tankning bosh konstruktori Vladimir Ivanovich Potkinning vafotidan keyin, Rossiya Federatsiyasi hukumatining qarori bilan T-90 tankiga „Vladimir“ nomi ham berildi.

2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda T-90 jahon bozorida eng ko'p sotiladigan tankka aylandi. 2019-yil holatiga ko'ra yangi T-90 ning narxi 2,5–3,5 million dollar, T-90MS ning narxi esa 4,5 million



dollarni tashkil etadi. 2011-yil oxiridan boshlab Rossiya qurolli kuchlari uchun T-90 tanklarini sotib olish vaqtincha to'xtatildi.

T-90 ning old qismida boshqaruv bo'linmasi, o'rtada jangovar bo'linma va orqa qismida motor-harakatni uzatish bo'linmasi klassik joylashuvga ega. T-90 ning ekipaji uch kishidan iborat: boshqaruv bo'linmasida tankning bo'ylama o'qi bo'ylab joylashgan mexanik-haydovchi va tankning bosh qismida to'pning chap va o'ng tomonida mos ravishda joylashgan komandir bilan mo'ljalga oluvchi.



M1 ABRAMS (AQSH)


M1 Abrams – AQSHning asosiy jangovar tankidir. 1980-yildan beri ommaviy ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. U AQSH armiyasi va dengiz piyodalari, shuningdek, Misr, Avstraliya, Marokash va bir qator Yaqin Sharq davlatlarining qurollanish vositalari tarkibiga kiritilgan. General Kreyton Abrams nomi bilan atalgan.


1999-yil holatiga ko'ra M1A2 takomillashtirilgan ko'rinisdagi tankning o'rtacha bahosi taxminan 6,2 million AQSH dollariga baholangan.

2012-yilda AQSH armiyasi bilan tuzilgan shart-noma bo'yicha tankning narxi 5,5–6,1 million AQSH dollarini tashkil etgan.

Tank – oldida boshqaruv bo'linmasi, o'rtada jangovar va orqa qismdagi motor-harakatni uzatish bo'linmasi bo'lgan klassik joylashuv tartibi asosida tayyorlanadi. Ekipaj – komandir, mo'ljalga oluvchi, o'qlovchi va mexanik-haydovchidan tarkib topgan.

Bugungi kunda „Abrams“ – AQSHning asosiy jangovar tanki barcha davrlarning eng muvaffaqiyatli chiqqan tanklaridan biri bo'lib qolmoqda.





Bu qiziq!

1991-yilda „Abrams“ birinchi jangga kirganida, o‘zining samarali o‘q otishi va boshqa tanklar unga ziyon yetkaza olmasligi bilan askarlarni hayratda qoldirgan. Fors ko‘rfazi urushi paytida biron-ta ham „Abrams“ talafot ko‘rmagan.

K2 „BLACK PANTHER“ (Koreya)

K2 „Qora pantera“ – Janubiy Koreyaning zamonaviy jangovar tankidir. 2014-yil amaliyotda sinalgan.

Mashina Janubiy Koreya mudofaa ishlanmalari agentligi va Rotem („Hyundai Motors“ bo‘linmasi) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. K2 armiyadagi Amerika M48 tanklarining o‘rniga kelishi va K1 tanklari qatorini to‘ldirishi lozim edi.

K2 „Qora pantera“ni ishlab chiqishda tankning barcha elektron tizimlarini yagona tarmoqqa birlashtiradigan hamda taktik bo‘g‘inni avtomatik tarzda boshqarishni ta‘minlaydigan tank va jangovar axborot-boshqarish tizimlari, shuningdek, haqiqiy vaqt rejimida jangovar va razvedka ma‘lumotlarini ayirboshlashga alohida e‘tibor qaratildi.





Bu qiziq!

Ushbu juda murakkab va texnologik jihatdan ilg'or tankning asosiy kamchiligi uning qiymatidir. Bir dona tankning narxi 8,5 million AQSH dollariga baholanishi, uni bugungi kunda dunyodagi eng qimmat tanklardan biriga aylantiradi.

LEOPARD 2 (Germaniya)

Leopard 2 – asosiy jangovar nemis tankidir.

2015-yil boshiga kelib, ushbu turdagi tanklar 3000 dan ortiq ishlab chiqarilgan, 2017-yil holatiga ko'ra har xil ko'rinishdagi 2516 dona Leopard 2 tanklari Germaniya, Gollandiya, Avstriya, Norvegiya, Shvetsiya, Shveysariya, Ispaniya, Daniya, Gretsiya, Finlandiya va boshqa davlatlar armiyasida „xizmat“ qilmoqda.

2001-yildan buyon 2A5 ko'rinishdagi tanklarning bir qismi (225 dona) Germaniyaning eng zamonaviy Leopard 2A6 tanki darajasigacha takomillashtirilmoqda. Yangi tank bosh qismining zirhlanishi kuchaytirilib, minaga qarshi qo'shimcha himoya vositasi bilan jihozlandi. Yangi modelning asosiy farqi 11 kalibrga (1320 mm)



uzunligi oshirilgan Rhl 120/L55 zambarakdir. To'p diametri bilan birga uning ichki energiyasi va o'qlarning boshlang'ich tezligi oshdi, natijada, zirni teshish qobiliyati va nishonga zarar yetkazish masofasi o'sdi. Tankda axborot-boshqaruv tizimini o'rnatish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanking og'irligi 62 tonnagacha oshdi.




„ARJUN“ (Hindiston)

„Arjun“ – Hindistonning asosiy, zamonaviy jangovar tankidir.

Chet elda ishlab chiqarilgan qurolli kuchlar ixtiyoridagi tanklarni almashtirish uchun yaratilgan.

2006-yilda ommaviy ishlab chiqarish boshlangan. Birinchi tanklar 2007-yil sentabr oyidan Hindiston armiyasi ixtiyoriga topshirilgan.

Dastlab, Hind zirh-tank kuchlarining asosini tashkil etadigan 2000 dan ortiq tank ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi. Biroq 2008-yilda Rossiyaning T-90 tankini tanlash va „Arjun“ning ishlab chiqarilishini cheklash to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunga „Arjun“ning harakatlanish qismidagi ishonchsizlik sabab bo'lgan.




2011-yil 12-martda Hindiston Qurolli kuchlari 37 yillik ishlab chiqish dasturini tugatgandan so'ng, Jaysalmerdagi 75-tank polkiga berilgan 45 ta „Arjun“ Mk. I tanklari qurolli kuchlar tarkibiga qabul qilinganini e'lon qildi. Ular xuddi shunga o'xshash T-55 tanklari bilan almashtirildi.



TO'RTINCHI AVLOD (2015—...)

Tank endi yarim robotlashtirilgan qurilmadir. Ekipaj zirhli kapsulada saqlangan. Gap shundaki, oldin ekipaj to'p va o'q-dorilar bilan birga tankda „yashagan“. Tanklar esa, ko'pincha, o'q-dorilarga ziyon yetkazilishi va keyinchalik ularning portlashi tufayli o'zi ham portlab ketgan. Ushbu davrdagi tanklarning asosiy xususiyatlari: avtomatlashtirish va robotlashtirish. Klassik joylashuv tartibi 100 yillik foydalanishdan so'ng eskirdi. Endi ekipaj jang bo'linmasida emas, alohida ajratilgan boshqaruv bo'linmasiga joylashdi.





T-14 „ARMATA“ (Rossiya)

T-14 – bu „Armata“ universal zanjir tasma yordamida harakatlanadigan Rossiyaning eng yangi tankidir.

T-14 o'z konstruktorlik asosida „markaziy tarmoq urushi“ tushunchasini ro'yobga chiqaradigan dunyodagi birinchi tankdir, bu yerda T-14, asosan, razvedka mashinasi vazifalarini bajaradi.

Tank hatto snaryad va raketalarni o'z atrofidagi piyoda va texnikalar uchun xavfsiz tarzda zararsizlantirgan.

„Afganit“ faol mudofaa majmuasining yangi turlari bilan jihozlangan.

„Armata“ning boshqa barcha zamonaviy tanklardan keskin farqi – bu o'ziga xos kapsula sxemasidir: T-14 ekipajining uch a'zosi korpus ichidagi maxsus zirhlangan kapsulada, ya'ni bir-biridan alohida bo'lgan zirhli qatlamlar orqasida joylashadi. Shu bilan birga, tankning bosh qismi ham zamonaviy tanklar orasida yagonadir. O't ochish nazorati



jangovar axborot-boshqaruv tizimi yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ommaviy ishlab chiqariladigan T-14 „Armata“ning o't ochish va olib borishdagi ustunligini ta'minlaydigan raketani ishga solish qurilmasi mavjud. Hech bir zamonaviy tankda bunday kalibrlí, uzoqqa otadigan kuchli to'p otuvchilar yo'q.




T-15 (Rossiya)

T-15 – „Armata“ universal zanjir tasma yordamida harakatlanadigan platformadagi Rossiyaning istiqbolli zirhli jangovar mashinasi.

Rossiya qurolli kuchlarida birinchi piyodalar og'ir jangovar mashinasi bo'ladi (T-14 tanki darajasida og'ir zirhlangan). T-15 tanki zirhlanish darajasiga va „Afganit“ faol himoyaga ega bo'lib, bu piyodalar jangovar mashinasiga Armata T-14 tanklari bilan bir qator-da jang qilish imkonini beradi. Zamonaviy raketa qurollari va zenit to'plari ham yerdagi, ham havodagi nishonlarga qarshi samarali kurasha oladi.

T-15 og'irligi va himoya darajasi xususiyatlari bo'yicha eng yaqin „raqib“ – bugungi kunda „Marder“ piyodalar jangovar mashinasi o'rniga Germaniya qo'shinlariga berilayotgan „Puma“ (Schutzenpanzer Puma)dan ustun turadi.



T-15 ning korpusi granata va o'qlarni o'tkazmaydigan qilib yaratilgan. Mashina korpusi so'nggi po'lat qotishmalari, kompozit materiallar va keramikadan foydalangan holda birlashtirilgan ko'p qatlamli zirhlardan yasalgan. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, T-15 ning zirhlanishi tank snaryadlari, istiqbolli tanklar va raketa hujumlariga qarshi chidamlidir.



„YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI“

Tuzuvchi:

JAMOA

TANKLAR

„**Ziyo nashr**“ nashriyoti

Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

*Abdurahmon Jo'rayev
Quvondiq Shomurotov
Malika Kamolova
Surayyo Sunnatullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019

11.02.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 70x90¹/₁₆.
Ofset qog'oz. „Century Gothic“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7,02. Adadi 6000 (3-zavod). Shartnoma № 135-19.

„Ziyo nashr“






Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„Ziyo nashr“ MChJ da chop etildi.



Toshkent shahri, Bektemir tumani, Husayn Boyqaro ko'chasi, 3-uy.

• YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI •

TURKUMIDA CHOP ETILGAN KITOBLAR



ZIYO NASHR

 fb.com/ziyo.nashr
 ziyonashr@mail.ru


Uchar Gilam
ONLINE BOOKS



YANGI
KITOBLARIMIZNI
INTERNET ORQALI
ONLAYN
XARID
QILISH UCHUN
QR-KODNI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-5933-3-6



9 789943 593336